BANKLARDA KREDIT RISKI MAZMUNI, UNI BAHOLASH VA BOSHQARISH USULLARI

Xamroliyeva Moxigul Raxmatali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi” fakulteti magistratura bosqichi talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada bugungi kunda bank tizimida vujudga keladigan risklar ichida eng ko’p tarqalgan kredit riskining mazmuni, kelib chiqish sabablari, uni baholash hamda boshqarish usullari to’g’risida bayon etildi. Shuningdek, kredit riskiga ta’sir etuvchi omillar, O’zbekiston Respublikasi bank tizimida kredit riskining salmog’i haqida yoritib berildi. O’zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit portfeli va uning risk darajasi tahlil qilinib, kredit riskini kamaytirishda mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashning o’rni va kredit monitoringining ahamiyati haqida yoritib berildi. Tadqiqot yakunida O’zbekiston Respublikasi bank tizimida kredit riskini boshqarish bo’yicha zamonaviy usullar va xorijiy davlatlar tajribasi bo’yicha xulosalar berib o’tildi.*

Kalit so’zlar: *Markaziy bank, bank tizimi, kredit riski, qarz yuki, ta’minot, kredit portfeli.*

ABSTRACT: *This article analyzes the content of credit risk, which is currently one of the most common risks in the banking system, as well as its causes, assessment methods, and management approaches. In addition, the factors influencing credit risk and the share of credit risk in the banking system of Uzbekistan are analyzed. The article also covers the credit portfolios of commercial banks in Uzbekistan and their level of risk, highlighting the importance of assessing the borrowers’ creditworthiness and conducting effective credit monitoring in reducing credit risk. At the end of the study,*

conclusions are presented regarding modern methods of credit risk management and the experience of foreign countries in the banking sector of the Republic of Uzbekistan.

Key words: *Central bank, the banking system, credit risk, debt burden, collateral, credit portfolio.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье описывается содержание кредитного риска, причины его возникновения, методы его оценки и управления, а также наиболее распространенные риски в современной банковской системе. Рассматриваются факторы, влияющие на кредитный риск, и его значимость в банковской системе Республики Узбекистан. Анализируется кредитный портфель коммерческих банков Республики Узбекистан и уровень его риска, подчеркивается роль оценки кредитоспособности клиентов и важность кредитного мониторинга в снижении кредитного риска. В заключение исследования делаются выводы о современных методах управления кредитным риском в банковской системе Республики Узбекистан и опыте зарубежных стран.*

Ключевые слова: *Центральный банк, банковская система, кредитный риск, долговая нагрузка, залог, кредитный портфель.*

Kirish

Hozirgi kunda bank-moliya tizimining barqarorligi har qanday davlat uchun iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, tijorat banklari mamlakat moliyaviy tizimining asosiy bog’ini hisoblanib, ularning barqarorligini ta’minlash maqsadida banklar faoliyatida yuzaga keladigan risklarni aniqlash hamda oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko’rish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Xalqaro Bazel Qo’mitasi bugungi kunda bank tizimida uchraydigan risklarni uchta yirik toifaga ajratadi: kredit riski, bozor riski hamda operatsion

risk [3]. O'zbekistan Respublikasi tijorat banklarida yuzaga keladigan risklarning eng katta ulushini kredit riski tashkil etib, jami risklarning taxminan 60-70 % qismini egallaydi. Banklarda aktiv operatsiyalarning katta qismi kredit operatsiyalariga to'g'ri kelib, odatda 60-65 % ni tashkil etadi va natijada, kredit bilan bog'liq tavakkalchiliklar salmog'i ham yuqori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 18-apreldagi 3427-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan "Banklar va bank guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomga asosan kredit riskiga quyidagicha ta'rif berilgan, ya'ni "kredit tavakkalchiligi - qarzdorning bank oldidagi majburiyatlari shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan muddat va shartlarda bajarilmasligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar ko'rish va rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi"dir [1] degan ta'rif keltirilgan. Ushbu nizomning 7-bobida kredit tavakkalchiligini boshqarish qo'yiladigan talablar, kredit siyosati, risk appetiti va kredit monitoringi bo'yicha qo'yiladigan talablar mavjud bo'lib, tijorat banklari ushbu nizom asosida kredit operatsiyalarini amalga oshirishi lozim.

Maqolaning asosiy maqsadi - banklarda kredit riskining mazmuni, yuzaga kelish sabablari hamda ularni boshqarishda rivojlangan davlatlar tajribasini O'zbekiston bank tizimida qo'llash imkoniyatlari haqida yoritib berishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro bank amaliyotida vujudga keladigan risklar albatta bankning moliyaviy holatiga, uning likvidliliga hamda barqaror faoliyatiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ilmiy manbalarda bank risklarining nazariy asoslari va ularning amaliyoti keng yoritilgan. Iqtisodchi olim O.I.Lavrushin "Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, u yo'qotishlarga olib keladi" degan fikrni ilgari suradi. Chet ellik olimlar risklarni ta'riflashdan ko'ra ularning alohida olingan turlarini ko'rishni afzal hisoblaydilar. Masalan,

K.D.Valravenning fikricha G‘arb mamlakatlari banklari ko‘proq likvidlik riski, kredit, portfel, sanoat, mamlakat, valyuta, foiz riskiga duchor bo‘ladilar. «Bankovskiy menejment» kitobi muallifi P.S.Rouz bank risklarga kengroq tushuncha berib, u bank riski oltita asosiy turdagi risk - kredit riski, foyda ololmaslik riski, likvidlik riski, bozor riski, foiz riski, to‘lay olmaslik riskidan tashkil topgan bo‘lib, bu risklar bank faoliyatida juda muhim, xal qiluvchi risklar hisoblanadi, deydi [4]. Bank uchun ikkinchi darajada bo‘lgan risklarga P.Rouz siyosiy riskni, suiste’mol riskini, valyuta riskini kiritadi.

Xalqaro bank amaliyotiga oid tadqiqotlarda bank risklariga turlicha ta’riflar berilgan, shunga qaramasdan bank tizimida yuzaga keladigan risklar o’xshash bo’lib, iqtisodchi olimlar tomonidan ham ushbu risklarni boshqarish bo’yicha takliflar va usullar keltirilgan. Masalan, amerikalik iqtisodchi olim Fischer Black kredit riskini baholashda "Black-Scholes" modelidan foydalangan. U banklar uchun risklarni boshqarish va kapitalni taqsimlashda matematik model va statistik tahlilning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ularning ishlari banklar uchun risklarni boshqarish strategiyalarini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarda risk tushunchasi - bu bank faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy yo’qotishlar bo’lib, ushbu yo’qotishlar banklarning moliyaviy holatiga, ya’ni likvidliligiga bevosita va bilvosita salbiy ta’sirini ko’rsatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda risk turlari turlichi keltirilgan bo’lib, odatda banklarda uchraydigan risklar kredit riski, bozor riski, operatsion risk, foiz riski, likvidlilik riski va yana bir nechta risk turlari keltirilgan. Ushbu maqolada banklarda kredit riski (tavakkalchiligi) to’g’risida tushuntiriladi.

Banklarda kredit tavakkalchiligi - bu kreditor va kredit oluvchi o’rsatida tuzilgan shartnoma shartlarining buzilish oqibatida banklarda yuzaga keluvchi moliyaviy yo’qotishlar hisoblanadi. Bugun kunda bank amaliyotida kredit

operatsiyalari jami aktiv operatsiyalarning 60% dan ko'proq qismini egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, banklarda kredit operatsiyalari bilan bog'liq tavakkalchilik salmog'i yuqoridir. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktiv operatsiyalarini asosan chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobiga amalga oshirib, hozirgi kunda 83/17 nisbatda, ya'ni 17% atrofida o'z mablag'lari hisobiga, 83% atrofida esa jalb qilingan mablag'lari hisobiga amalga oshiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, agar banklar ajratgan krediti o'z vaqtida va to'liq qaytmasligi oqibatida omonatchi va depozitorlari oldidagi majburiyatini bajara olish qobiliyatini yo'qotadi va natijada banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda esa tijorat banklari omonatchilari oldidagi majburiyatini ustav kapitali hisobidan qoplaydi. Shu sababli ham bank ustav kapitalining 3 ta asosiy funksiyasi mavjud ekanligi ta'kidlangan bo'lib, ular himoya, nazorat va operativlik (tezkorlik) hisoblanadi [6]. Banklarda kredit riski asosan mijozning kredit tarixi, uning kreditga layoqatliligi hamda qarz yuki ko'rsatkichlari yaxshi tahlil qilinmasligi oqibatida yuzaga keladi. Bugungi kunda banklarda kredit ajratish uchun mijozning qarz yuki ko'rsatkichi 2025-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Qarz oluvchi jismoniy shaxlarning qarz yukini tartibga solish to'g'risida"gi 3205-sonli nizomiga asosan 50% dan oshmasligi lozim, ya'ni mijozning bir oylik jami to'lovlari uning oylik daromadining 50% dan ko'p bo'lmasligi kerak [2].

Kredit riskini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- Tashqi (makroiqtisodiy) omillar - bank nazorat qila olmaydigan lekin kredit sifatiga ta'sir ko'rsatadigan omillar (yuqori inflyatsiya darajasi, valyuta kursining keskin o'zgarishi, qonunchilikdagi o'zgarishlar);
- Ichki (mikroiqtisodiy) omillar - bankning o'z faoliyati va boshqaruv sifati bilan bog'liq omillar (kredit tahlilining sustligi, kredit

siyosatidagi kamchiliklar, kredit monitoringining sustligi, garov ta’minotining yetarlli emasligi);

- Subyektiv (mijozga bog’liq omillar) - qarz oluvchining to’lov intizomi, biznes rejaning muvaffaqiyatisizligi.

Tijorat banklari risklarini boshqarishda asos bo’ladigan me’yoriy-huquqiy hujjat bu O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 10.12.2021 yilgi 2696-3-sonli “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida”gi nizomi hisoblanadi. Ushbu nizomda aktivlarning sifat jihatdan turkumlanishi, ular uchun yaratilishi kerak bo‘lgan zahiralar miqdori keltirib o‘tilgan.

1-jadval

Aktivlarning sifat jihatdan tasniflanishi va ular uchun yaratilishi kerak bo‘lgan zahira me’yorlari [7].

Sifat jihatdan turkumlanishi	Yaratilishi kerak bo‘lgan zahira miqdori
Standart	1%
Substandard	10%
Qoniqarsiz	25%
Shubhali	50%
Umidsiz	100%

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, har bir tijorat banki aktivlarining sifati yuzasidan belgilangan miqdorda zahira shakllantirishadi, bu esa banklar uchun ko‘zda tutilmagan holatlarda yo‘qotishlarni yo‘qotishlarni qoplash uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, banklarda kredit tavakkalchiligini boshqarishda kredit siyosatiga qo’yiladigan talablar mavjud bo’lib, ular:


- kredit arizalarini ko’rib chiqish, ma’qullash yoki rad etish;
- qarz oluchilarning to’lovga layoqatliligini baholash, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish;
- ta’minotning turlari va bahosi bo’yicha talablar, kreditning ta’minlanganlik darajasi;
- ta’minotsiz kreditlar (ishonchga asoslangan) berishga qo’yiladigan talablar;
- kredit mahsulotlari bo’yicha ta’riflarni belgilash tamoyillari;

Banklarda kredit ajratishda 5 ta tamoyillar mavjud bo’lib, ular to’lovlilik, qaytarishlilik, muddatlilik, maqsadlilik hamda ta’minlanganlik tamoyillari hisoblanadi.

Banklarda kredit ta’minoti uchun qo’yilgan talab 125% hisoblanadi, ya’ni mijoz ta’minoti kredit miqdorini 125% dan kam bo’lmasligi lozim. Shuningdek, ta’minot uchun garov talab qilinganda, garov qiymatining odatda 80%i olinadi va ushbu baho kredit bahosining 125% dan kami bo’lmasligi lozim hisoblanadi [8]. O’zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ta’minotning uchta shakli mavjud bo’lib, ular garov, kafillik va kafolat hisoblanadi. Ushbu ta’minot turlarining eng ko’p tarqalgan shakli garov hisoblanadi. Kafolat turiga keladigan bo’lsak, ta’minot uchun kafolatni uchta tashkilot berishga haqli bo’lib, ular davlat, bank va sug’urta hisoblanadi.

Banklarda kredit riskini boshqarishda xorijiy davlatlar asosan Xalqaro Bazel Qo’mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida faoliyat yuritadi. Bank nazorati bo’yicha Xalqaro Bazel Qo’mitasi (BCBS) banklarni prudensial tartibga solish bo’yicha asosiy global standartlarni belgilovchi tashkilot bo’lib, 1974-yilda Xalqaro Hisob-kitoblar bank (Bank for International Settlements - BIS) qoshida tashkil etilgan bo’lib, u bank nazorati masalalari bo’yicha muntazam hamkorlik uchun forum yaratadi. Bazel standartlari bo’yicha tavakkalchilikni boshqarish asosan banklarda ustav

kapitalining yetarliligi bo'yicha talablarni o'z ichiga oladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, banklarda kredit tavakkalchiligi oqibatida yuzaga keladigan moliyaviy inqirozlarni oldini olish bankning ustav kapitali muhim ro'l o'ynaydi. Xalqaro Bazel Qo'mitasining talabiga ko'ra banklarda ustav kapitali minimal miqdori 10 ming yevro ekvivalentida bo'lishi lozimligi ta'kidlangan. Banklarda tavakkalchiliklarni oldini olishga qaratilgan yana bir eng asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomidir. Unga ko'ra, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kapitaliga nisbatan minimal talab belgilangan bo'lib, hozir 500 milliard so'mni tashkil etadi.



1-rasm. Markaziy bankning tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqddoriga qo'ygan talabi (mlrd.so'mda) [9].

Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, Markaziy bankning tijorat banklarining ustav kapitali minimal miqdoriga qo'yilgan talabi yildan yilga oshib bormoqda. Banklarda ustav kapitali juda ham muhim asos hisoblanadi, aynan bank risklarini boshqarishda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, banklarda kredit riski eng keng tarqalgan risk turi hisoblanib, unga bir nechta omillar sabab bo'ladi. Misol tariqasida, AT

“Aloqabank” ni oladigan bo’lsak, 2025-yil so’ngidagi moliyaviy hisobotiga ko’ra, bank aktivlari tarkibining 59.3% (18 702 mlrd so’m) kredit operatsiyalariga to’g’ri kelgan. Kredit riskini boshqarishda O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilgan holda, har bir tijorat banki mustaqil ravishda kredit siyosatini joriy qiladi. Kredit riskini oldini olishda avvalambor, mijozning kreditga layoqatlilik ko’rsatkichini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu ko’rsatkich bir nechta omillar asosida aniqlanib, ular oylik daromadi, biznes rejasi, ta’minoti, kredit miqdori, muddati, valyutasi hamda kredit skoringi asosida tahlil qilinadi va baholanadi.

Bugungi kunda tijorat banklarida kredit tavakkalchiligi salmog’i yuqori bo’lishiga qaramay, banklarda kredit skoringi bo’yicha talablar kuchaymoqda va bu kelgusida tijorat banklarida mavjud risklarni yanada kamaytirishga va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “Banklar va bank guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to’g’risida”gi nizomi, ro’yxat raqami 3427.
2. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “Qarz oluvchi jismoniy shaxlarning qarz yukini tartibga solish to’g’risida”gi nizomi, ro’yxat raqami 3205.
3. The Basel Committee on Banking supervision - https://www.bis.org/bcbs/index.htm.
4. Bank ishi: darslik. universitetlar uchun / V.I. Kolesnikova - M.: Moliya va statistika, 2010. - 564 p.
5. Fischer Sheffey Black (January 11, 1938 – August 30, 1995) - https://en.wikipedia.org/wiki/Fischer_Black

6. I.M. Alimardonov, R.T. Shomurodov, J.K. Majidov. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish.” Darslik. -T.: “Nihol print” OK, 2021. 216-bet.

7. Saidov D.A. “Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish”. Darslik. – T. “DIADEMA NUR SERVIS” MCHJ nashriyoti, 2025 y.

8. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “O’zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to’g’risida”gi nizomi, ro’yxat raqami 906.

9. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki Boshqaruvining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo’yiladigan talablar to’g’risida”gi nizomi, 06.06.2015y, ro’yxat raqami 2693.

10. Sh.Z. Abdullayeva, U.O’. Azizov. “Bank risklari”. Darslik. - “Iqtisod-Moliya”, 2019.